



MUQIMIY HAYOTI VA IJODINI ANGLASH VA O'RGANISHGA OID TASHABBUSLAR

Hamroyeva Sevinch Hamroyevna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti Moliya va Buxgalteriya hisobi
fakulteti Buxgalteriya hisobi va audit yo'nalishi

2-kurs talabasi

E-mail:hamroyevasevinch1@gmail.com

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-mart 2023 yil

Ma'qullandi: 24-mart 2023 yil

Nashr qilindi: 27-mart 2023 yil

KEY WORDS

*satiralar, Muqimiy, tashabbuslar,
Muqimiy me'rosi vebsayti, Muqimiy
devonlari*

ABSTRACT

Ushbu maqolada Muqimiyning ijodidagi mukammal yozilgan she'rlaridagi ayrim misralarning ma'nosi bugungi kun muammolarini ta'kidlayotgani haqida fikrlar keltirilgan. Hozirgi kunda Muqimiy nomini abadiylashtirish uchun talabalar va muqimiyshunos olimlar tomonidan qilinayotgan tashabbuslar eslatib o'tilgan.

Muqimiy adabiyotning bir nechta janrlarida ijod qilgan. Uningayniqsa hajviy asarlari tahsinga sazovordir. Muqimiy dunyoqarashi va intilishlari bilan muhit o'rtasidagi ziddiyat uning ijodida tanqidiy yo'nalishni maydonga keltirgan. Bu uning xajviyotida ko'proq aks etgan. Hajviyoti mazmunan satira va yumorga bo'linadi. Muqimiyning bu yo'nalishda juda ko'p asarlari mavjud. Hajviyoti asosan tanqidiy kulgiga asoslangan bo'lib, o'zi yashab turgan davrda jamiyat hayotida mavjud bo'lgan muammolarni she'riy yo'sinda gavdalantira olgan. Muqimiy qashshoqlikda hayot kechirib, oddiy odamlar hayotini o'rgangan. U o'z asarlarida jamiyatda mavjuda bo'lgan muammolarni tasvirlagan. Uning asarlari hayotiy bo'lganligi uchun ham o'z davrida ham, bugungi kunda ham ta'sir doirasi yuqori hisoblanadi. U hajviyotida asosan o'zi yashab turgan davrda ijtmoy-iqtisodiy hayotni tasvirlashga harakat qilgan. Hozirgi kunda ham uning asarlarini o'rganish asosida, u yaxshab o'tgan davrda aholining hayot tarziga baho berish mumkin.

Muqimiy ijodini o'rganish uning hayotlik chog'idan boshlangan. She'rlariga bildirilgan turli-tuman munosabatlar haqidagi bahslar, maqolalar bunga dalil bo'ladi. Shoir vafotidan to'rt yil keyin uning devoni "Devoni Muqimiy" nomi bilan ilk bor 1907-yilda Muqimiy Nikolay Ostroumov tomonidan nashr etilgan. Unda shoirning she'riy asarlari bilan birga tarjimayi holi va ijodi haqida qisqacha ma'lumot ham berilgan. 1910-yili Portsev litografiyasida "Devoni Muqimiy maa hajviyot" nomi bilan shoir asarlarining ikkinchi nashri amalga oshirildi. Shoir ijodini jiddiy va keng ko'lamda o'rganish o'tgan asrning 30-yillaridan boshlandi. Bu davrda asarlarini to'plash, o'rganish, nashr etish qizg'in va samarali olib borildi. Gazeta va jurnallarda qator maqolalar e'lon qilindi. Bu xayrli ishning boshida buyuk shoir G'afur G'ulom turdi. Uning tashabbusi bilan 1938-yil "Muqimiy bayozi" tuzilib nashr etildi. "Bayoz"da shoirning 800 misradan iborat 27 ta she'ri berilgan bo'lib, ular janr xususiyatiga qarab joylashtirilgan (Satira-yumor, lirika) va ularga zaruriy izohlar, lug'atlar berilgan. 1950-yil shoir asarlari "Lirika i satira"

nomi bilan Moskvada rus tilida bosildi.1953 yil Muqimiy vafotining 50 yilligi munosabati bilan u haqda birqator tadqiqotlar yaratilib, Muqimiyshunoslikka asos solindi. H.Yoqubovning "O'zbek shoiri Muqimiy", A.Olimjonovning "Muhammad Amin Muqimiy", H.Zaripovning "Muhammad Amin Muqimiy", H.Razzoqovning "Muqimiy va Zavqiy" nomli kitoblari hamda "Furqat va Muqimiy" nomli maqolalar to'plami nashr etilgan. Shoir ijodi namunalari yuzasidan ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Afsuski, ularda Muqimiy asarlari sho'ro davri mafkurasi talabiga ko'ra bir tomonlama talqin qilingan. Natijada, shoir nazmiy merosi o'zining asosiy mohiyatidan uzoqlashtirildi. Ya'ni asarlari tahrirga uchradi, qisqartirildi, manbalarda qolib ketdi. Muqimiy asarlari turli qo'lyozma va toshbosma bayozlarda, san'atkorlarning yon daftarlarida, adabiyot havaskorlari kolleksiyalarida, ayrim parcha qog'ozlarda turli kishilar qo'lida saqlanib kelingan. Ta'kidlash joizki, shoir

asarlari yig'ish va nashr etish professor G'.Karimov tomonidan "Asarlar to'plami" jami to'rt marta (1958,1960,1973,1974) chop etilgan. Afsuski, bu nashrlarda Muqimiy ijodi kommunistik mafkuraning kuchli tazyiqi sabab to'liq va mukammal holda nashr etilgan emas Muqimiy adabiy merosi qo'lyozmalari yuzasidan A.Shokirov tomonidan ilmiy izlanishlar olib borildi. Ayniqsa, shoir asarlarining sovet davridagi eng so'nggi nashriga kiritilmagan ayrim she'rlar keng jamoatchilik e'tiboriga havola qilindi. Ilmiy izlanishlar natijasida shoir ijodi sho'ro davri mafkurasiga ko'ra quyidagijihatlar ataylab buzib ko'rsatilgan: birinchi, shoirning diniy-tasavvufiy ruhdagi aksariyat she'riy asarlari nashr etilmay qolgan; ikkinchidan, Muqimiyni boy, savdogar, qozilarga qarshi qilib ko'rsatish tadqiqotlar uchun ustuvor vazifa etib belgilangan; uchinchidan, Muqimiyning "Saroy adabiyoti" va an'analari bo'lgan munosabati noto'g'ri talqin qilinib, ulardan sinfiy kurash alomatlari izlangan.

Shoirning turli janrlardagi lirik she'rlari singari "Dorig'o mulkimiz", "Hajviy Bekturboy", "Dar mardumi oqjar batariqi muxammas", "Dar mazammati zamon", "Ho'qandlik bir boyning sha'niga Muqimiy shoirning aytkon she'ridur", "Sayohatnoma", "Dar mazammati qurbaqa" kabi ko'plab ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi hajviy asarlari tahrir qilinib, qisqarishlar bilan nashr etilishi buning isbotidir. Jumladan, muxammas janridagi "Dorig'o mulkimiz" sarlavhali she'r Muqimiy asarlar to'plamida 6 band, asliyatda esa 8 band. Ikki band ataylab tushirib qoldirilgan. Bundan tashqari, muxammasning deyarli barcha bandlaridagi misralar tahrirga uchragan. Shundan so'ng joriy nashrga kiritilgan. Natijada shoirning chor mustamlakachilariga bo'lgan tanqidiy qarashi, umuman, shoir ruhiy olami yashirilgan. Xuddi shunday holni muxammasning birinchi bandidagi misralarda ko'ramiz:

Joriy nashrlarda:

Dorig'o mulkimizning sohibi ahli sharor o'lmish,

Shariat hukmi qozilar qo'lida purg'ubor o'lmish,

Ba joyi amri ma'ruf kori munkar oshkor o'lmish,

Hakim-u, olim-u,sohib fasohat xor-u zor o'lmish,

Bu kunda kimki imonin sotar, ul e'tibor o'lmish.

Asliyatda esa[Madaminov 1997, 34]:

Dorig'o, dini islom hokimi ahli kuffor o'lmish,
Shariat ko'zqusikim kufr gardidin g'ubor o'lmish,
Ba joyi amri ma'ruf nahyi munkar oshkor o'lmish,
Sayid, sodotlar behurmat-u, ko'p xor-u zor o'lmish,
Bu kunda kimki imonin sotibdur, e'tibor o'lmish.

Misralarni solishtirib ko'rilganda ko'rinadiki, she'r butunlay teskari tahlil

qilingan. Natijada, shoirning tanqidi mustamlakachilarga emas, din peshvolariga, qozi-yu boylarga qaratilgan bo'lib qolgan. Aslini olganda shoirning maqsadi bunday emasligi oydinlashadi. Bu misralarda shoir "Shariat ko'zqusikim kufr gardidin g'ubor o'lmish"-deya sayidlar behurmat ekanligidan iztirob chekadi. Dinimiz, shariatimizning mustamlakachilar tomonidan poymol etilishi, oqibatda xalqning tobora shariatdan uzoqlasha borishi, umuman, millatning shunday ayanchli ahvolga, mustamlaka girdobiga tushib qolgani uning haqli e'tiroziga sabab bo'ladi. Zamonning ayanchli ahvolga tushib qolganini, nodon kimsalar hurmatda va izzatdayu, ilm ahlining xor-u zor bo'lishi, ularda zarracha izzat yo'qligi kuyunchaklik bilan tilga olinadi: "Hazor afsuskim, ilm ahlida bir zarra izzat yo'q" deb boshlanuvchi she'rida o'z ifodasini topgan. Shoir ijodida shunga o'xshash mavzudagi she'rlarni ko'plab uchratamiz, jumladan yana bir she'rida: Zamona ahlining bir firqasig'a hayf insonliq deya taassuf qiladi. Jamiyatda fisq-u fasod ishlarning ko'payib ketishini g'ayridin kishilar kofirlar aralashuvida deb biladi. Natijada xalqning ma'naviy buzilishi, e'tiqodsizlik, axloqsizlik, ichkilikbozlik avj olganligi ta'kidlanadi.

Istiqlol yillarida adabiy merosimiz keng o'rganish uchun imkoniyatlar yaratiladi. Jumladan Muqimiyning she'rlarini chet tillarga tarjia qilish boshlanadi. Adibning nomi abadiylashtirish maqsadida Qo'qonda uy muzeyi tashkil etldi. Farg'ona viloyatidagi shaharchaa, Toshkent ko'chalaridan biriga, O'zbek davlat musiqali drama teatrga i Muqimiy nomi berildi. Bu jarayon davomi sifatida 2020-yil may oyida tashkil etigan adiblar xiyoboni adabiyot, ma'rifat va madaniyat markaziga aylantirilib, undagi 24 nafar adiblar timsoli tasvirlangan bo'lib, muayyan oliy o'quv yurtlariga bo'linib berildi. Jumladan zabardast shoirlardan biri Muhammad Aminxo'ja Muqimiy merosini o'rganish Toshkent Davlat Iqtisodiyot universitetiga birlashtirildi. Muqimiy aynan ushbu universitetga birlashtirilishining asosiy sabablaridan biri uning asarlaridagi ayrim iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning bugungi kundagi innovatsion yechimlarini o'rganish va yechim topilmagan muammolarni ustida bosh qotirish uchun, iqtisodchi kadr sifatida shu muammolar yechimini yoshlar yechishi uchun ham o'rganishga ushbu universitet talangan. Muqimiy hayoti va ijodini o'rganishda jonbozlik, fidoiylilik ko'rsatgan talabalar, professor-o'qituvchilar uchun "Muqimiy "ko'krak nisoni va stipendiyasi ta'asis etilgan. Ushbu tashabbuslar natijasi sifatida universitet talabalari tomonidan "Muqimiy me'rosi" (<https://w.w.w.muqimiymerosi.uz>) deb nomlanuvchi internet sayti faoliyati yo'lga qo'yilgan. Bundan maqsad raqamli texnologiyalar rivojlangan davrda adiblar me'rosini ko'proq auditoriya tanitishdir.

References:

1. O'zbekiston arboblari veb-sayti ma'lumotlari <https://arboblari.uz/uz/people/mukimi>

2. <https://www.muqimiymerosi.uz/>
3. Muqimiyning she'riyati:matn tarixi,tahriri va talqini "Monografiya .-Toshkent, 2019.



**INNOVATIVE
ACADEMY**